


SIRDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT

2022- yil 1- fevral holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)




Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalarini tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.


Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022-yil 1-fevral holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

4




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar oyida)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar oyida, birlikda)







Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **1,9** foizga oshdi




■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish

O‘rmon xo‘jaligi

Baliqchilik xo‘jaligi




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2022-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **4,5 foizga oshdi**



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



103

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

2 037

Ishlab chiqarish sanoati

38

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

19


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

2022-yil 1-fevral holatiga ko'ra, sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 2 197 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,5 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalari va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 105,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 92,7 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 106,2 % ga (jami sanoatdagi ulushi 4,7 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 158,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,7 %) o'sishidir va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 46,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,0 %) ko'payishi kuzatildi.




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **5,2 foizga oshdi**




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




5,2 foizga oshdi




Mikrofirkmalar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



10,6 foizga oshdi




Oilaviy korxonalar




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



20,0 foizga oshdi



Xususiy korxonalar




13,9 foizga kamaydi




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




Mikrofirmalar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




Xususiy korxonalar






Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yilning 1- fevral holatiga ko'ra 404 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 31 taga yoki 108,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 352 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 21 taga yoki 106,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 7 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 taga yoki 116,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yilning 1- fevral holatiga ko'ra 11 527 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 997 taga yoki 109,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 10 727 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 880 taga yoki 108,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 150 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan - 62 taga yoki 29,3 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra 193 tani tashkil etib, ulardan 185 tasi yoki 96,4 % i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 28 taga yoki 117,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **5,8** foizga kamaydi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

13




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil	2022- yil
Jami	89	112	158	186	185
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	5	8	12	18	18
Sanoat	64	77	100	115	114
Qurilish	3	7	10	12	14
Savdo	10	11	24	26	24
Tashish va saqlash	3	4	6	4	5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	-	1	1	1	-
Axborot va aloqa	-	-	2	2	1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	-	-	-	-
Boshqa turlar	4	4	3	8	9

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

15


	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Sirdaryo viloyati	185	125	60
Guliston sh.	45	27	18
Yangiyer sh.	20	11	9
Shirin sh.	5	5	-
Oqoltin	5	3	2
Boyovut	8	3	5
Sayxunobod	11	8	3
Guliston	6	5	1
Sardoba	9	6	3
Mirzaobod	14	9	5
Sirdaryo	55	44	11
Xovos	7	4	3

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Sirdaryo tumanida 55 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 29,7 %), Guliston shahrida 45 ta (24,3 %), Yangiyer shahrida 20 ta (10,8 %), Sayxunobod tumanida 11 ta (5,9 %) hamda Mirzaobod tumanida 14 tani (7,6 %) tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)

16




2022-yil 1-fevral holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Guliston shahri (27,7 %), Yangiyer shahri (7,0 %), Shirin shahri (2,6 %), Sirdaryo (14,0 %), Sayxunobod (7,7 %), Boyovut (8,0 %), Guliston (7,4 %), Mirzaobod (8,6 %), Oqoltin (5,8 %), Xovos (5,6 %), Sardoba (5,5 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2022-yil yanvar oyida, birlikda)

2022-yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Guliston shahri (27,2 %), Yangiyer shahri (6,0 %), Shirin shahri (2,2%), Sirdaryo (13,0 %), Sayxunobod (7,1 %), Boyovut (7,1 %), Guliston (9,2 %), Mirzaobod (6,5 %), Oqoltin (6,0 %), Xovos (5,4 %), Sardoba (10,3 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni

(2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

(2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Guliston shahri (25,6 %), Yangiyer shahri (8,0 %), Shirin shahri (2,5 %), Sirdaryo (15,7%), Sayxunobod (8,0 %), Boyovut (7,3 %), Guliston (6,8 %), Mirzaobod (9,1 %), Oqoltin (5,4 %), Xovos (5,9 %) va Sardoba (5,8 %) tumanlari hissalariga tegishli.

Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi

(2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)


18



2018-2022- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar bo'yicha soni


(2022- yilning yanvar oyida, birlikda)




2022- yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar, hududlar kesimida taqsimlanganda Guliston shahri (16,7 %), Yangiyer shahri (33,3 %), Sirdaryo (33,3 %), Guliston (16,7 %) tumanlari ulushni qayd etadi

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2022-yilning yanvar oyida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan % da



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi, hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reyestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz va Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasining www.sirstat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrarni yuritish bo'limi
Tel.: (67) 236-86-37